

KIBERTERRORCHILIK

Qo‘chqarova Sarvinoz

**Urganch davlat pedagogika instituti 1-bosqich milliy g‘oya huquq ta’limi
yo‘nalishi talabasi.**

Annotatsiya: Mazkur maqolada kiberterrorchilik, uning kelib chiqishi, zararlari haqida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Kiberterrorchilik, xavflari, internet, insonlar, kiberjinoyat, tarmoq odobi, kompyuter viruslari.

Xato yo‘ldan yurib,qilmay oriyat
Avlod-ajdodingga keltirma uyat
Noqobilfarzanddan ota qalbi zor
Undan begonalar yaxshidir zinxor
(Barhurdor ibn Mahmud)

Bugungi kunga kelib, internet orqali insonlarga moddiy va ma’naviy zarar yetkazayotgan kimsalar “kiberterrorchilar”deb nomlanmoqda. Kiberterrorchilar axborot texnologiyalaridan foydalanib, siyosiy, diniy va ideologik maqsadni amalga oshirish, ma’lumot uzatiladigan obyektlarni yo‘q qilish bilan ham insonlarni havotirga solmoqda. Bular asosida xakerlar asosiy o‘rinni egallaydi. Xakerlarning maqsadi boshqa birovning pullarini, boyliklarini tuban qobiliyatidan foydalangan holda o‘zlashtirib oladi. Kiberterrorchilik hozirda global muomalardan biri bo‘lib, insonlarga katta zarar yetkazmoqda, ayniqsa, ruhiy va moddiy jihatdan, kiberterrorchilar o‘zlarining razil niyatlaridan foydalanib, ishonuvchan, sodda insonlarni aldab ularni plastik karta nomerlari ega bo‘lib, undan ma’lum miqdorda pul yechib oladilar. Kiberterrorchilar o‘z ishlarining ustasiki, ularni oddiy o‘g‘rilar kabi ushslash amri mahol. Kiberterrorchilik bu tahdid yoki qo‘rqitish orqali internetdan foydalangan holda siyosiy yoki mafkuraviy muvaffaqiyatga erishish maqsadida uyushtiriluvchi kibehujumlardir. Kompyuter viruslari, kompyuter qurtlari, fishing, zararli dasturlar, apparat usullari, dasturlash skriptlari kabi vositalar yordamida kompyuter tarmoqlarini, internetga ulangan shaxsiy kompyuterlarni qasddan keng miqiyosda buzish harakatlari internet terrorizmi bo‘lishi mumkin. Kiberterrorizm munozarali atamadir. Ba’zi mualliflar ma’lum terroristik tashkilotlar tomonidan signalizatsiya vahima yoki jismoniy buzulishni yaratish maqsadida axborot tizimlariga qarshi hujumlarni buzish bilan bog‘liq juda tor ta’rifni tanlaydilar. Boshqa mualiflar esa kiber jinoyatni o‘z ichiga olgan kengroq ta’rifni afzal ko‘rishadi. Kibehujumda ishtirok etish, hatto zo‘ravonlik bilan amalga oshirilmagan bo‘lsa ham terror tahdidi



idrokiga ta'sir qiladi. Kiberterrorchilik maxsus xakerlik dasturlari orqali kompyuter boshqaruvi tarmoqlarini egallab olish, viruslar yordamida kompyuter tarmog‘ini ishdan chiqarish kabi hunrezliklarni amalga oshiradi. Bugungi kunda aynan ushbu tushuncha axborot-kommunikatsiya texnologiyalar sohasidagi ko‘p turdagи jinoyatlarni o‘zida birlashtirgan. Virus va boshqa zararli dasturlar, qonunga zid axborot tayyorlash va tarqatish, elektron xatlarni ommaviy tarqatish, xakerlik hujumi, veb-saytlarga noqonuniy kirish, firibgarlik, mualliflik huququni buzish, kredit kartochkalari raqami va bank rekvizitlarini o‘g‘irlash hamda boshqa turli virtual jinoyatlar kiradi. Ushbu holatlarda jinoyatchilar o‘zlarini qiziqtirgan obyektlarga moddiy va ma’naviy zarar yetkazishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymoqda. Bunday kimsalar doirasi esa yildan-yilga kengayib bormoqda. Keying paytlarda internet tizimi imkoniyatlarini ishga solib, o‘ta ishonuvchan va sodda odamlarni laqillatayotgan, ularni aldab mablag‘larini osonlik bilan o‘zlashtirayotgan firibgarlar ham ko‘payib qoldi. Virtual jinoyatlar o‘zlarining bunday hatti-xarakatlari bilan 110 milliard dollardan ziyod moilaviy zarar yetkazmoqda. Bunday qonunbuzarliklarni oldini olish uchun yiliga 270 milliard dollardan ortiq mablag‘ sarflanmaoqda. Bugungi kunda internetdan foydalanayotgan xakerlar dunyoning ko‘plab mamlakatlarida hukumat idoralari, xalqaro tashkilatlarning ma’lumot zaxiralariga tinimsiz hujumlar uyiştirayotgani haqida xabarlar ko‘paymoqda. Xususan viruslarga qarshi dasturlar ishlab chiqaruvchi McAfee kompaniyasi ma’lumotlariga ko‘ra, har kuni kompeyuter va tarmoqlar uchun zararli bo‘lgan ana shunday 60 ming virus ishlab chiqariladi. Bu raqam bundan ham ko‘p bo‘lishi mumkin. Kiberterrorizm yangi va o‘rganilmagan jinoiy sohadir. Internet tarmog‘idagi ochiq manbalar orqali biologik, kimyoviy, hatto yadro qurollarini tayyorlash texnologiyalarini o‘rgangan holda amalga oshirilayotgan terrorchilik harakatlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar e’tiborini tortmoqda. Saytlarni noqonuniy yo‘li maxfiy ma’lumot bilan buzish orqali kiberterrorchilik turli maxfiy ma’lumotlarni olish imkoniga ham ega bo‘layotganini aytish joiz.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, kiberjinoyatchilik haqida, uning g‘oyaviy nazariy asoslari va uning tub mohiyatlari haqida odamlarda immunitet hosil qildirish kerak. Kiberjinoyatchilika qarshi kurashishni targ‘ib qiluvchi hamda undan ogoh bo‘lishga qaratilgan tanlovlар o‘tkazilsa maqsadga muofiq bo‘ladi. Oddiy fuqarolarni, o‘quvchi, talabalarni kiberterrorchilarning xavfidan ogoh qilish uchun ularda internetdan eng asosiysi vaqtidan unumli foydalanish haqida, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanganda tarmoq odobiga riosa qilishi haqida uqtirish kerak.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Internetdagi tahdidlardan himoya. Toshkent 2013.
2. Qashqadaryo.uz
3. Darakchi.uz
4. Vikipediya.uz.

